

O`ZBEK TILIDA ARABCHA SINIQ KO`PLIKLARNING QO`LLANILISHI

Shodmonova Gulhayyo

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Filologiya va tillarni o`qitish o`zbek tili yo`nalishi talabasi

Ramazonova Shahodat

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Filologiya va tillarni o`qitish o`zbek tili yo`nalishi talabasi

Hamroqulova Shahzoda

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Filologiya va tillarni o`qitish o`zbek tili yo`nalishi talabasi

Anotatsiya

O`zbek tiliga arab tilidan kirgan siniq ko`pliklar va ularning tildagi o`rni ahamiyati . Ularning tilimizga kirish tarixi haqida

Kalit so`zlar; Arabiston, Al-Farg`oniy , Beruniy , ko`plik shakllari , siyosiy-vaziyat, o`tmish xalqlari, bitmoq feli , tasavvur , tasvir

VI asrning o`rtalariga qadar Arabiston yarim orolida yashagan qabila ,urug`larning hayot tarzi qoloq bo`lib, ularning mutloq ko`pchiligida ibtidoiy-patriarxal tuzum munosabatlari hukum surgan. Ko`chmanchi badoviy oilalari, urug`lari o`z chorva mollari uchun yer-suv, o`tloq qidirib keng sahrolar bo`ylab kezganlar. Hijozning bosh shahri-Makka xalqaro karvon savdosining muhim markazi hisoblangan. Makkalik quraysh qabilasi savdogarlarning turli mintaqalar bilan bog`langanligi, savdo -tijorat sohasi esa mana shu arab tilining yoyilishiga keng yo`l ochib berdi.

O`zbek tili leksikasida arabcha so`zlarning mavjudligi, o`tmishda Markaziy osiyo hududlarining arablar tomonidan egallanishi hamda uning tarixiy-ijtimoiy oqibatlari bilan bog`liqdir. Sodir bo`lgan siyosiy hamda ma`naviy o`zgarishlar mahalliy xalqlar intellektual tarzining barcha sohalariga arab tili va arab madaniyatining kirib kelishiga zamin yaratadi. Buning natijasida, arab tilining keng tarqalishi, bu tilda yozishga, o`qishga muomala qilishga va diniy aqidalarni bajarishga to`g`ri kelganligi mahalliy xalqlarning ma`lum darajada arab tilini o`rganishiga olib keldi. Bu hol o`z navbatida, o`zbek-arab ikki tilligi xodisasini tug`dirdi. Chunki mahalliy xalq tomonidan arab tili o`rganilishining yana muhim sabablaridan biri, bizningcha, arablar bilan birga islom dini bilan birga kelib kelgan muqaddas Qur`oni Karimning arab tilida bo`lganligidir. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, arab tili o`zbek tiliga ba`zi tillardagi singari faqat islom dini tili sifatidagina emas, balki fan tili rasmiy idoraviy

uslub tili, badiiy adabiyot sifatida ham ta'sir etadi. Natijada, mahalliy xalq vakillari o'z ona tili bilan bir qatorda arab tilida erkin yoza oladigan va gapira oladigan bo'ldi. O'rta osiyolik mashhur olimlar Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg'oniy kabilar o'z ilmiy asarlarini arab tilida yozganlar.

Turkiy tillarga dastlab diniy so'ngra, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy terminologiyaga oid arabizmlar kirib keldi. Arabcha so'zlar nafaqat turkiy tillarga, balki u bilan doimiy birga yashab kelgan fors-tojik tiliga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Ko'pgina adabiyotlarda o'zga tillardan so'z o'zlashtirishning asosiy manbai sifatida boshqa tillardan qilingan tarjimalar ko'rsatiladi. Albatta, bu to'g'ri. Kitobchilik sohasida ham arabcha yoki forscha leksik birliklarning o'zbek tiliga kirib kelishiga u tillardan qilingan davlat ahamiyati darajasidagi tarjimonlarning o'rni katta bo'lgan. Bunday tarjimachilik ishlaridan ko'zda tutilgan asosiy maqsad turkiy xalqlarni sharqda takomil topgan va adabiyot yutuqlari bilan keng tanishtirishdir. Shu maqsadda, asosiy tarjimalar arab va fors tillaridan amalga oshirilgan.

Arabcha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishidagi yana boshqa bir manba bu arab kitobchilik san'atining butun borlig'i bilan turkiy xalqlar, birinchi navbatda, o'zbek xalqi madaniyatiga kuchli ta'sir etishi bilan bog'liqdir. Biz bilamizki arab kitobchiligi islom dini yoyilishining dastlabki bosqichlarida muqaddas Qur'oni Karimning ko'chirib tarqalishiga bo'lgan ehtiyoj natijasida shakllandi va rivoj topdi. Bunday deyishimiz uchun ma'lum bir asoslar bor. Chunki ba'zi manbalarda yozishlaricha, islom dinining paydo bo'lishiga qadar arablar o'zlarining muayyan bir yozuvlariga ega bo'lmagan. To'g'ri, III-IV asrlarga qadar ularda oromiy yozuvining arabcha variant qo'llanishda bo'lgan, lekin bu yozuv turi u qadar yoyg'in bo'lmaganligi sababli arab xalqi tarixi va hayotiga oid rivoyat hamda ertaklar, asosan, avloddan avlodga og'zaki rusumda yetib kelgan. Islom dinining paydo bo'lishi va uning natijasida arab xalfasining tuzlishi bilan arab xalqining madaniy, siyosiy, iqtisodiy, hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, qadimda o'zbeklar yozuv qurollaridan hisoblangan siyohdonni bitigu so'zi orqali ifodalashgan Bitigu so'zining etimologiyasi ham bitig singari asli turkiy " bitmoq " feliga borib taqalishi ma'lum. Keyinchalik bitigu terminini o'rni arabcha davot so'zi to'liq egallaydi. Malum vaqdgga qadar bitigu va davot terminlari parallel tarzda qo'llangan. Keyinchalik arab tili ta'sirida davot turki bitigu so'zini leksikadan siqib chiqargan. Shuningdek bitigu o'rnida arabcha yana bir termin – mihbara ham davot terminiga sinonim tarzida muomalagaki9rib kelgan. Shuningdek, ayrim arabcha o'zlashmalar dastlabki o'zlashgan vaqtlarda tilimizda faol qo'llanishda bo'lgan bo'lsa, hozirgi kun nuqtayi nazaridan erishishi, ya'ni ular anglatgan tushunchalarning texnik taraqqiyot tufayli yo'q bo'lib ketishi yoki ularning o'rnini yangi terminlar egallashi natijasida ular arxaik termin sifatida iste'moldan chiqib ketgan. Masalan, kutub, "kitob" ning ko'plik shakli, ya'ni ko'plik shakli o'zagi o'zgargan holda bo'ladi. Manqul, naql etilgan, bironing aytganlaridan ko'chirilgan,

manqut nuqta qo`yilgan, nuqtali; marqum, yozilgan, bitilgan, raqam dud; midod, yozuv ishida qo`llangan siyoh; qoralik, qurum, iplar tortib yasalgan chizg`ich; miqroz, qog`ozgarlikda qog`oz qirqishda ishlatiladigan qaychi; mudavvin to`plovchi biror fanga oid ma`lumotlarni to`plab, izohlab kitob holiga keltiruvchi; muvajjid, kitobni qiroat bilan o`qish ilmining olimi; harflarni to`g`ri talaffuz qilib, qoidaga muvofiq o`quvchi, qiroat qiluvchi, yaxshilovchi; mujadvaljadvallangan, jadval tortilgan; mujaddid, ijod etuvchi, yangidan yaratuvchi; mujallad, jildlangan, muqavalangan kitob; jild – tom; mujallid, kitobni jildlovchi, muqavasoz, sahhof; muzahohhab, zarhal qilingan, tilla suvi berilgan varoq, muzohhib; qo`lyozma sahifalarini oltin suvi bilan bezovchi, zarhal qiluvchi usta; mukotobot, o`zaro xat yozishuv; maktublar; muntahab – bir yoki bir necha fanga oid muhim masalalarni tushuntirib beruvchi asar; saylab solingan; muntahib-qo`lyozma nusxalarini ko`chiruvchi; saylab oluvchi munshaot-maydaroq nasriy asarlar; xatlar to`plami; munshiy-yozuvchi, kotib; munsho-yozilgan, bitilgan; murakkab, yozuv ishlarida qo`llangan siyoh; muraqqa-rasmlil kitob; musavvada-qo`lyozmaning ilk nusxasi, qoralama; musannof-tasnif etilgan, tuzilgan, yozilgan asar; musannafot-tasniplar, tasnif bo`lganlarasarlari; musannif-kitob yozuvchi, tasnif etuvchi, muallif; musovada-xatga olish, yozish, xat; mushaf-kitob, risolalar to`plami, muqattaot-qit`alar, qisqa she`rlar, parchalar; muharrar-yozilgan, tahrir qilingan; nasx-ko`chirish, nusxa olish, eski arabcha yozuvning bir turi; raqim-xat yozuvchi, kotib; ruq`a-maktub, parcha qog`ozdagi yozuv; arzi oxlos-yozilgan xat; ruqum-“raqam”ning ko`pligi, yozuvlar; Sahv-yozuvda yo`l qo`yilgan xato; sahvulqalam-qalam xatosi, yozuvdagi yangilishlik; sahoish-“sahifa”ning ko`pligi, sahifalar, varoqlar, betlar; sijil-mahkamada hukm, farmon kabi asaosiy hujjatlar yoziladigan daftar; sijillat-qozixonada qozi tomonidan beriladigan vasiqa, hukmnoma kabi hujjatlarning mazmuni yozilib qoldiriladigan maxsus daftar; tadvin-she`r va boshqa asarlarni to`plab, tartibga keltirib, kitob holiga solish, devon tuzish; tasnif-asaryaratish, turlarga ajratish; tasonif-“tasnif”ning ko`pligi; tasofir-“tafsir”ning ko`pligi.

Arabcha sinik ko`pliklar o`zagidan o`zgarib hosil bo`ladi.

Varoq-bo`yi va eni ma`lum hajmga ega bo`lgan, yozish uchun mo`ljallangan.

Avroq-“varoq”ning ko`plik shakli.

Kitob-ma`lum matnli varoqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo`lmagan bosma asar.

Kutub-“kitob” so`zining ko`plkdagi shakli.

Valad-o`g`il bola, farzand.

Avlod-ota-bobodanqolgan nasl.

Ilm-o`qish, o`rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim.

Ulum-“ilm”so`zining ko`plkdagi shakli.

Xalq-bir yerda yashovchi odamlar yig`indisi.

Xoliq-“xalq” so`zining ko`pligi. Yaratuvchi ijodkor.

Xilqat-yaratilgan, bunyodga kelgan narsa yoki kimsa.

Fikr-aynanfikir-zikr.
 Afkor-“fikr” so`zining ko`pligi.
 Tafakkur-fikr yuritish, o`ylash, fikrlash.
 Kabir-katta, ulug`.
 Akbar-eng katta, ulkan.
 Akobir-eng kattalar.
 Karam-marhamat, muruvvat, himmat.
 Ikrom-ko`plikdagi shakl. Hurmat izzat.
 Forig`-xoli, bo`sh; egallanmagan, befoyda.
 Maxfirat-“forig`” so`zining ko`plikdagi shakli.
 Uns-yaqinlik, ulfatlik, mehribonlik.
 Anis-“uns`ning ko`pligi.
 Munis-ulfat, hamdam, do`st, eng yaqin sirdosh.
 G`ani-badavlat, davlatmand.
 Ag`niyo-“g`ani” so`zining ko`pligi.
 Hakim-donishmand, faylasuf.
 Hukamo-“hakim” so`zining ko`pligi.
 Idbor-Chekinish, orqaga qaytish.
 Mudbir-“idbor” so`zining ko`pligi.
 Qobil-qabul qiluvchi, har narsaga ko`nuvchi, qobilyatli.
 Iqbol-yaqinlashish. “Qobil” so`zining ko`pligi.
 Subh-erta tong, sahar.
 Saboh-“subh” so`zining ko`plikdagi shakli.
 Talab-izlash, qidirish, so`rash.
 Tolib-izlovchi talab qiluvchi.
 Talaba- so`rovchilar, talab qiluvchilar.
 Matlub-istalgan, kerakli, istaklar yog`indisi.
 Habib-sevikli; do`st, o`rtoq.
 Mahbub-sevimli; yor yoki do`st.
 Kofir-tanimovchi, inkor etuvchi.
 Kufr-dinsizlik; ko`nماكlik.
 Xulq-fe`l-arvor.
 Axloq-muomala, xatti-xarakat odobi.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo`lsak, boshqa tillar qatori arab tilidagi so`zlar ,qo`shimchalar ham tilizmizning anchagina qismini tashkil qiladi . Bunday shakllar nutqimizda muqim o`rnashib qolgan va nutqimizni ravon hamda jozibali qilishimizda shu kabi boshqa tillardan kirgan shakllarning ham o`rni mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

- 1.O`zbek tilining izohli lug`ati
- 2.Ilmiy maqolalar to`plami
- 3."Hozirgi o`zbek adabiy tili" R.Sayfullayeva
4. "Devonu lug`ati at-turk" Mahmud Ko`shg`ariy
5. "Qutag`du Bilig" Yusuf Xos Hojib
- 6.Internet saytlari